

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ELEKTR ENERGETIKADA NAZORAT BO‘YICHA  
DAVLAT INSPEKSIYASI (O‘ZDAVENERGONAZORAT) BOSHIG‘INING  
BUYRUG‘I

**ISTE‘MOLCHILARNING ELEKTR QURILMALARIDAN FOYDALANISHDA TEXNIKA  
XAVFSIZLIGI QOIDALARINI TASDIQLASH TO‘G‘RISIDA**

**[O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 20-avgustda 1400-son bilan  
davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan]**

O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi **Qonuni**, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 29-apreldagi 210-sonli **qarori** va Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 1-martidagi 96-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Elektr energetikada nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi (“O‘zdavenergonazorat”) to‘g‘risidagi” **nizomga** muvofiq buyuraman:

1. Ilova\* qilinayotgan “Iste‘molchilarning elektr qurilmalaridan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari” tasdiqlansin.

\* Ilova rus tilidagi matnda beriladi.

2. Mazkur buyruq o‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida davlat ro‘yxatidan o‘tgan kunidan boshlab 10 kun davomida amalga kiritilsin.

3. Mazkur buyruq kuchga kirgan kundan boshlab SSSR energetika va elektrlashtirish vazirligining Boshenergonazorati tomonidan 1984-yil 21-dekabrida tasdiqlangan “Iste‘molchilarning elektr qurilmalaridan foydalanishda texnika xavfsizligi qoidalari” O‘zbekiston Respublikasi hududida qo‘llanilmasin.

4. Mazkur buyruq bajarilishining nazoratini o‘z zimnamda qoldiraman.

**“O‘zdavenergonazorat” inspeksiyasi boshlig‘i B. TESHABOYEV**

Toshkent sh.,  
2004-yil 2-avgust,  
271-son

*(O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-y., 33-son, 379-modda; 2012-y., 12-son, 138-  
modda; 2013-y., 6-son, 73-modda)*